NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

QODIROVA DILFUZA G‘OPIRJON QIZI

O‘ZBEK TILIDAGI GRAMMATIK O‘ZLASHMALARNING LISONIY XUSUSIYATLAR

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Namangan – 2026

UO‘K: 811.512.133’373.45

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD) on Philological Sciences

Оглавление автореферата диссертатсии доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Qodirova Dilfuza G‘opirjon qizi
O‘zbek tilidagi grammatik o‘zlashmalarning lisoniy xususiyatlari 3

Kodirova Dilfuza Gopirjon kizi
Linguistic characteristics of grammatical borrowings in the Uzbek language..... .25

Кодирова Дилфуза Гопиржон кизи
Лингвистические особенности грамматических заимствований в узбекском языке 49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ 54

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

QODIROVA DILFUZA G‘OPIRJON QIZI

O‘ZBEK TILIDAGI GRAMMATIK O‘ZLASHMALARNING LISONIY XUSUSIYATLAR

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Namangan – 2026

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Fil4945 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Qo‘ziyev Umidjon Yandashaliyevich** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Odilov Yorqinjon Rahmonaliyevich** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Hasanov Akbarjon Abdurashidovich filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Andijon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Fil.22.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Bobursho‘h ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (+99869)227-06-12; Tel.: (+99869) 228-85-01, Faks: (+99869) 228-85-02. Web-sayt: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz, faks: (+99869)227-07-61; e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 160107, Namangan shahri, Bobursho‘x ko‘chasi, 161-uy, Tel: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “____” _____ dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi).

N.M.Uluqov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

O.T.Yuldashev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

F.I.Karimova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida globallashuv va madaniyatlararo munosabatlarning jadallashuvi sharoitida tillarning o‘zaro ta’sirlashuvi hamda leksik sathdagi o‘zgarishlar atroflicha o‘rganib kelinmoqda. Til tizimining eng barqaror va yopiq sathi hisoblangan grammatik qurilishda tashqi lisoniy ta’sirlar natijasida sodir bo‘ladigan struktural-funksional o‘zgarishlar hamon mutaxassislar oldiga yangi-yangi muammolarni qo‘ymoqda. Xususan, grammatik shakllar va sintaktik qoliplarning o‘zlashish mexanizmlari hamda ularning o‘zlashtiruvchi til ichki qurilishiga integratsiyalashuv jarayoni jahon tilshunoslari diqqatini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Shu jihatdan grammatik o‘zlashmalarning tizim-strukturaviy tabiati va funksional-semantik xususiyatlarini diaxron hamda sinxron aspektda tadqiq etish tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlari va moslashuv imkoniyatlarini tadqiq etishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida til kontaktining grammatik tizimga ta’sirini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda bir tilga xos grammatik birlik va struktur modellarning boshqa til ta’sirida qanday voqelanishi, qabul qiluvchi tilning mavjud vositalari bilan qayta shakllanishi hamda uning grammatik qurilishidan o‘rin olish xususiyatlari tadqiq etilmoqda. Til kontaktiga oid tadqiqotlarda grammatik interferensiya, donor tilga xos struktur modellarning boshqa tilda voqelanishi hamda ularning qabul qiluvchi til tizimiga moslashuvi alohida o‘rganilmoqda. O‘zlashuv jarayonining etnopsixologik, madaniy, kontaktologik jihatlari tilshunoslik va boshqa ijtimoiy fanlarning kesishmasida o‘rganilishga muhtoj nuqtalardan ekanligi masalaning naqadar dolzarb ekanligini isbotlaydi.

O‘zbek tilshunosligida aksariyat zamonaviy o‘zlashmalar raqamli media orqali kirib kelayotgani keng e’tirof etilmoqda. Mustaqillik davrida xalqaro aloqalarning kengayishi va raqamli kommunikatsiyaning jadallashuvi o‘zbek tilida o‘zlashuv jarayonini sezilarli darajada faollashtirdi. Avval Yevropa tillariga mansub birliklarning o‘zlashuvida rus tilining vositachilik roli ustun bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi davrda, ayniqsa, ingliz tilidan bevosita o‘zlashish kuchaymoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Ayni paytda dunyoda ilm-fan va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib, mamlakatimizning xalqaro hamkorlik aloqalari tobora kengaymoqda. Natijada, hayotimizga chetdan ko‘plab yangi tushuncha, so‘z va iboralar kirib kelmoqda”[1]. Mazkur jarayon faqat lug‘aviy sath bilan chegaralanmay, xorijiy tillarga xos ayrim grammatik unsurlar va struktur qoliplarning o‘zbek nutqida faollashuvida ham namoyon bo‘lmoqda. Shu bois grammatik o‘zlashmalarning lisoniy tabiati, struktur xususiyatlari, o‘zbek tili grammatik tizimiga integratsiyalashuvi va me’yorlashuv darajasini aniqlash muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

[1] Mirziyoyev Sh. M. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutq. – Toshkent, 2019-yil 21-oktyabr. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. president.uz/oz/lists/view/2954

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[2]gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[3]gi farmonlari, 2025-yil 20-oktabrdagi PQ-308-son “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”[4]gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-sentabrdagi 589-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[5] gi hamda 2026-yil 7-avgustdagi 437-son “Respublikada davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”[6] gi qarorlarida belgilangan davlat tilining nufuzi va mavqeyini mustahkamlash, o‘zbek adabiy tilining ilmiy asoslari, qoida va me’yorlarini takomillashtirish, tilning zamonaviy taraqqiyot jarayonlarini ilmiy o‘rganish, o‘zga tillar ta’sirida yuzaga keladigan lisoniy hodisalarni me’yor nuqtayi nazaridan baholash hamda o‘zbek tiliga oid ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar hamda innovatsion rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tillararo aloqaning tabiiy mahsuli sifatida yuzaga keladigan o‘zlashuv hodisasi jahon tilshunosligida turli nazariy yondashuvlar asosida tadqiq etilib, uning lisoniy tabiati, amalga oshish mexanizmlari va qabul qiluvchi til tizimida namoyon bo‘lish xususiyatlariga doir muayyan ilmiy qarashlar tizimi shakllangan. Xususan, ingliz tadqiqotchilaridan U.Vaynrayx, E.Xaugen, A.Patritsiya, R.Fillipson[7] larning, rus tilshunosligida I.A.Boduen de Kurtene, L.P.Efremov, L.V.Shcherba, L.P.Krisin, V.M.Aristova, A.K.Kazkenova, S.Alatortseva, M.V.Tarasova[8] larning, turkiy tillar doirasida esa

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // www.lex.uz

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // www.lex.uz

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi PQ-308-son “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori // www.lex.uz

[5] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-sentabrdagi 589-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // www.lex.uz

[6] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 7-avgustdagi 437-son “Respublikada davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // www.lex.uz

[7] Weinreich U. Languages in contact: Findings and problems. – New York, 1953. – 149 p.; Haugen E. The analysis of linguistic borrowing // Language. – New York: 1950. Volume, 26. № 2, 1950. – P. 210-231.; Patrizia A. Lexical Innovation in World Englishes: Cross-fertilization and Evolving Paradigms. – London: Routledge, 2018. – 174 p.; Phillipson R. Linguistic imperialism. – Oxford: Oxford University Press, 1992. – 365 p.

[8] Бодуэн де Куртене И.А. Избранные труды по общему языкознанию. В 2 томах. Том II. – М.: АН, 1963. – С. 365.; Ефремов Л.П. Сущность лексического заимствования и основные признаки освоения заимствованных

V.A.Sicheva, S.S.Kenesbayeva, A.Ovezov, G.Mirzoyeva[9] kabilarning ishlarida, grammatik o‘zlashmalar masalasi esa zamonaviy kontakt lingvistikasi doirasida Y.Matras, J.Sakel[10], F.Gardani[11] tomonidan izchil o‘rganilgan.

O‘zbek tilshunosligida o‘zlashma so‘zlar muammolari F.Abdullayev[12], T.Rahmonov, A.To‘raxojayeva, U.Qo‘ziyev, Sh.Jo‘rayev, N.Isakova, O.Shukurov, A.Jumaniyazov, G.Xo‘djayeva, E.Davlyatova[13] kabi tilshunoslarning ishlari alohida e’tiborga loyiq. Bundan tashqari, leksik sathdagi o‘zlashma so‘zlarni tavsiflash alohida maqsad qilingan qator lug‘atlar ham yaratildi[14]. Shunga qaramay, grammatik o‘zlashmalarning lisoniy tabiati, milliy til tizimiga integratsiyalashuv hamda me’yorlashuv xususiyatlari maxsus monografik asosda

---

слов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1959. – 22 с.; Щерба Л.В. О понятии смешения языков // Избранные работы по языкознанию и фонетике. –Т. 1. – Л., 1958. – С. 40-53; Крысин Л.П. Иноязычные слова в современном русском языке. – М.: Наука, 1968. – 208 с.; Аристова В.М. О лексических заимствованиях из английского языка в русский язык в XVII-XVIII вв. – М.: Высшая школа. – 1978. – 113 с.; Казкенова А.К. Онтология заимствованного слова. – М.: Флинта, 2013. – 248 с.; Алаторцева С.И. Проблемы неологии и русская неография: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – СПб., 1999. – 40 с.; Тарасова М.В. Семантические изменения английских заимствований в русском и немецком языках в условия глобализации: Автореф. дисс. …канд. филол. наук. – Белгород, 2009. –19 с.

[9] Сычева В.А. Арабские и персидские лексические заимствования в гагаузском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М.: 1974. – 26 с.; Кенесбаева С.С. Фонотактические модели арабизмов в казахском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1987. – 28 с.; Овезов А. Персидские и арабские заимствования в современной туркменской поэзии: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1974. – 28 с.; Мирзоева Г. Английские заимствования в тюркских языках // Молодий вчений. Херсон. №12 (88) 2020. – С. 69-72.

[10] Sakel J. Types of loan: Matter and pattern // Grammatical Borrowing in Cross-Linguistic Perspective. – Berlin; New York: Mouton de Gruyter, 2007. – P. 15–30.

[11] Gardani F. Borrowing matter and pattern in morphology: An overview // Morphology. – 2020. – Vol. 30, № 4. – P. 263–282

[12] Абдуллаев Ф.А. Арабизмы в узбекском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент: 1946. – 143 с.; Хамдамов Ж. Из истории русского языка в обогащение лексики узбекского языке (вторая половина XIX века): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент: 1963. – 24 с.; Данияров Р.И. Заимствование русско-интернациональных личных имен узбекским языком: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1967. – 21 с.; Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 200 б.; Ҳожиев А. Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти. III жилдли. III жилд. Сўз ясалиши ва лексика. – Тошкент: Фан, 1988. – 188 б.; Нишонов А.Х. Фонетико-морфологический и лексико-семантический анализ арабизмов в языке А.Навои: Автореф. дисс. ... канд. фил. наук. – Тошкент, 1990. – 19 с.; Жуманиёзов О. Ўзбек тилидаги герман тиллари ўзлашмалари. Монография. – Тошкент: Фан, 1987. – 104 б.

[13] Раҳмонов Т.И. Ҳозирги ўзбек тилидаги арабча ўзлашма сўзлар семантик тузилишидаги ўзгаришлар: Филол.фан. номз. … дисс. – Наманган, 1994. – 120 б.; Тўрахожаева А.Х. Мустақиллик шароитида ўзбек тили ижтимоий-сиёсий лексикасининг тараққиёти: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – С. 26; Қўзиев У.Я. Ўзбек тилидаги изоҳли луғатларда ўзлашма сўзлар тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) … дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 44 б.; Исакова Н. Мустақиллик йилларида ўзбек тилига кириб келган хорижий сўзларнинг таркибий-мазмуний таҳлили (“Халқ сўзи” газетаси материаллари асосида): Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2021. – 143 б.; Шукуров О. У. Ўзбек тили замонавий ўзлашмаларининг эволюцияси, трансформацияси ва лексикографик талқини масалалари (мустақиллик даври): Филол. фанлари доктори (DSc) … дисс. автореф. – Қарши, 2022. – 59 б; Жуманиязов А., Ходжаева Г.Б. Ўзлашмаларда норма ва кодификация. Монография.– Хива: Хоразм Маъмун академияси, 2023.–180 б; Давлятова Э.Мустақиллик даври ўзбек тилидаги Ғарбий Европа ўзлашмаларнинг маданиятлараро тадқиқи: Филол. фан. б. фалсафа доктори (PhD) … дисс. автореф. – Термиз, 2021. – 58 б.

[14] Усмонов О. , Дониёров Р. Ўзбек тилидаги русча-интернационал ўзлаштирма сўзлар изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1965. – 581 б.; Hamrayeva Y. O‘zbek tilining o‘zlashma so‘zlar o‘quv izohli lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 122 b.; Qurbonova M., Abjalova M., Axmedova N., To‘laboyeva R. O‘zbek tili o‘zlashma so‘zlarining urg‘uli lug‘ati. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 988 b.; Бектемиров Ҳ., Холмедов Ҳ., Содиқов С. Ҳуқуқшуносликка оид ўзлашма терминлар. – Тошкент: Адолат, 1999. – 68 б.; Сулаймонова Н., Абузалова М. Ўзбек тилидаги арабий сўзлар имлоси. – Тошкент: Фан ва технология, 2008. – 132 б.

alohida tadqiq etilmaganligi mazkur dissertatsiya mavzusining dolzarbligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur ish Namangan davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek tilining sistem-struktur va antropotsentrik tadqiqi” mavzusidagi istiqbolli ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek tilidagi grammatik o‘zlashmalarning lisoniy tabiatini, ularning morfologik va sintaktik sathlarda voqelanishi hamda o‘zbek tili grammatik tizimiga moslashuv xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagicha belgilandi:

grammatik o‘zlashmalarning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash va lisoniy mohiyatini yoritish;

o‘zbek tilidagi grammatik o‘zlashmalarning turlarini tasniflash, ularning morfologik va sintaktik sathlarda voqelanishi hamda grammatik tizimga integratsiyalashuv xususiyatlarini aniqlash;

o‘zbek tilidagi forsiy izofalarning tarixiy taraqqiyoti, struktur transformatsiyasi hamda zamonaviy o‘zbek tilidagi funksional-uslubiy xususiyatlarini tahlil qilish;

arabiy izofalarning hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi uslubiy vazifalari va qo‘llanish xususiyatlarini aniqlash;

rus tili ta’sirida shakllangan konstruksiyalarning o‘zbek tilida qo‘llanish holatlarini grammatik transfer va interferensiya mezonlari asosida ochib berish;

ingliz tili ta’sirida faollashayotgan grammatik qoliplar hamda grammatik o‘zlashmalarning me’yorlashuviga ta’sir etuvchi ijtimoiy-lisoniy omillarni aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek tilidagi grammatik o‘zlashmalar tizimi olindi.

Tadqiqotning predmeti sifatida o‘zbek tilidagi grammatik o‘zlashmalarning lisoniy xususiyatlari olindi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tavsiflash, qiyosiy-chog‘ishtirma, tarixiy-genetik, semantik, komponent va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan belgilanadi:

grammatik o‘zlashmalarning lisoniy tabiati, leksik o‘zlashmalardan farqli jihatlari, morfologik va sintaktik sathlarda namoyon bo‘lish xususiyatlari hamda o‘zbek tili grammatik tizimidagi o‘rni o‘zlashma grammatik birlik va qoliplarning til tizimiga moslashuvi, faollashuvi va me’yorlashuvi asosida tavsiflangan;

forsiy va arabiy izofalarning o‘zbek tilidagi struktur transformatsiyasi aniqlanib, ularning aniqlovchi-aniqlanmish hamda qaratqich-egalik munosabatlari asosida qayta shakllanishi, o‘zbek tilining grammatik qurilishiga moslashuvi hamda zamonaviy o‘zbek tilidagi funksional-uslubiy xususiyatlari ochib berilgan;

rus tili ta’sirida o‘zbek tilida faollashgan grammatik konstruksiyalarning struktur muvofiqligi va grammatik moslashuv darajasi asosida transfer hamda interferensiya holatlari farqlanib, ularning o‘zbek tili vositalari bilan qayta voqelanishi va me’yorlashuv xususiyatlari yoritilgan;

ingliz tili ta’sirida faollashayotgan grammatik qoliplarning o‘zbek tili tizimida morfologik va sintaktik jihatdan voqelanishi, xususan, o‘zlashma derivatsion elementlarning o‘zbekcha asoslar bilan birikishi, atributiv modellarning o‘zbekcha birikmalar tarkibida qo‘llanishi hamda inglizcha modellar asosida yangi grammatik qurilmalarning shakllanish xususiyatlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek tilidagi grammatik o‘zlashmalarning lisoniy xususiyatlari va ularning yuzaga kelishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar yuzasidan olingan natijalar morfologik va sintaktik jarayonlarni til kontaktlari bilan bog‘liq holda izohlashga imkon berishi asoslangan;

grammatik o‘zlashmalarni farqlash va guruhlash tamoyillari asosida jamlangan til materiallari o‘zlashgan birliklarning o‘zbek tili tizimidagi o‘rni hamda me’yorlashuv darajasini belgilash, shuningdek, lingvistik lug‘atlar mazmunini boyitishda foydalanish uchun ilmiy-amaliy asos bo‘lishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot muammosining aniq qo‘yilgani, chiqarilgan xulosalarning tavsiflash, semantik, komponent, qiyosiy-chog‘ishtirma, tarixiy-genetik hamda statistik tahlil usullari asosida dalillangani, grammatik o‘zlashmalarni tahlil qilish va izohlashda o‘zbek tilining olti jildli izohli lug‘atlari hamda zamonaviy matbuot materiallariga tayanilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati va amaliy ahamiyati. O‘zbek tilidagi grammatik o‘zlashmalarning lisoniy xususiyatlari, yuzaga kelish va faollashuv omillari, grammatik tizimga moslashuvi hamda me’yorlashuv jarayonlariga doir nazariy xulosalar bilan belgilanadi. Olingan natijalar o‘zbek tili grammatikasi va til kontaktlariga oid nazariy qarashlarni rivojlantirish uchun ilmiy asos bo‘la oladi;

tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning materiallari, natija va xulosalaridan o‘zbek tili grammatikasi, til kontaktlari va grammatik o‘zlashmalarga oid darslik hamda o‘quv qo‘llanmalarini yaratishda, oliy ta’lim muassasalarida maxsus kurs va seminarlarni tashkil etishda, shuningdek, izohli lug‘atlarni takomillashtirishda ilmiy-amaliy manbaa vazifasini bajaradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek tilidagi grammatik o‘zlashmalarning lisoniy xususiyatlarini tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

grammatik o‘zlashmalarning leksik o‘zlashmalardan farqli, alohida tizimli hodisa ekanligi, ularning lisoniy va ijtimoiy omillar ta’sirida shakllanishi hamda faollashuviga ta’sir etuvchi ijtimoiy-kommunikativ omillarga doir tahlil va xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda amalga oshirilgan PZ-2020042022 – “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada zamonaviy grammatik jarayonlar va o‘zlashma birliklarning nutqiy qo‘llanilishiga oid ilmiy-amaliy ma’lumotlarni shakllantirishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 6-yanvardagi 04/1-47-son ma’lumotnomasi). Natijada lingvodidaktik elektron platforma zamonaviy grammatik jarayonlar va o‘zlashma birliklarning nutqiy qo‘llanilishiga oid ilmiy-amaliy ma’lumotlar bilan boyitilgan;

o‘zbek tilida arab, fors-tojik, rus va ingliz tillaridan o‘zlashgan grammatik birliklarning lisoniy moslashuvi va me’yorlashuv jarayonlari, Yevropa tillari ta’sirida yuzaga kelgan atributiv va terminologik grammatik modellarning grammatik moslashuv mexanizmlari hamda grammatik o‘zlashmalarning fiksatsiya, kodifikatsiya va standartizatsiyasiga doir tahlil va xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2022–2024-yillarga mo‘ljallangan IL-402104209 – “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” nomli innovatsion loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 6-yanvardagi 04/1-48-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha grammatik o‘zlashmalarning lisoniy moslashuvi, grammatik modellarning voqelanishi va ularning me’yorlashuv jarayonlariga oid zaruriy ilmiy ma’lumotlar bilan boyitilgan;

o‘zbek tilidagi grammatik o‘zlashmalarning lisoniy xususiyatlari, xorijiy tillar ta’sirida yuzaga kelgan grammatik konstruksiyalar, qolipli birikmalar va affiksal modellarning voqelanishiga doir ilmiy tahlil va xulosalardan O‘zMTRK “O‘zbekiston” teleradiokanali tomonidan 2024–2025-yillarda efirga uzatilgan “Bedorlik”, “Ijod zavqi”, “Ta’lim va taraqqiyot”, “Millat va ma’naviyat” eshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zMTRK “O‘zbekiston” teleradiokanali davlat muassasasining 2026-yil 7-yanvardagi 26-36-06-son ma’lumotnomasi). Natijada, eshittirishlar mazmuni o‘zbek tilidagi grammatik o‘zlashmalar, ularning voqelanish xususiyatlari va zamonaviy grammatik jarayonlarga doir ilmiy ma’lumotlar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 6 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnalda, shuningdek, ilmiy-amaliy anjuman materiallarida 7 ta tezis va maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta asosiy bob (har biri uchta kichik bo‘limlardan iborat), umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib 136 sahifadan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning o‘rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Grammatik o‘zlashmalarning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi uch fasldan iborat. Birinchi faslda “O‘zlashmalarning nazariy asoslari va bosqichlari” yoritib berilgan.

Til jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadigan murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va kommunikativ jarayonlardagi o‘zgarishlar uning lisoniy tizimiga ta’sir ko‘rsatadi. Xalqlararo aloqalar va axborot almashinuvining jadallashuvi tillararo kontaktlarni kuchaytirib, nafaqat leksik birliklar, balki grammatik vositalar va sintaktik qoliplarning ham o‘zlashuviga zamin yaratadi. Grammatik o‘zlashuv til taraqqiyotining kontakt ta’sirida yuzaga keladigan qonuniyatli jarayonlaridan biri hisoblanadi.

Jahon tilshunosligida dastlab leksik o‘zlashuv doirasida o‘rganilgan mazkur hodisa kontakt lingvistikasining rivojlanishi bilan grammatik o‘zlashuv yo‘nalishida ham mustaqil tadqiqot obyektiga aylandi. Xususan, U. Vaynrayx til kontaktlari natijasida yuzaga keladigan interferensiyaning grammatik tizimda ham namoyon bo‘lishini asoslagan[15]. E. Xaugen esa o‘zlashmalarni tilning ichki ehtiyojlari va tashqi kommunikativ omillar bilan bog‘liq holda baholab, o‘zlashuv jarayonini seleksiya, adaptatsiya va integratsiya bosqichlari asosida tavsiflaydi[16]. Mazkur qarashlar keyinchalik grammatik o‘zlashmalarni tadqiq etishda nazariy asos vazifasini bajardi.

Kontakt lingvistikasining zamonaviy bosqichida grammatik o‘zlashmalar masalasi Matter borrowing va Pattern borrowing nazariyalari asosida yanada mukammal yoritildi. Y. Matras va J. Sakel grammatik o‘zlashuvni ikki asosiy yo‘nalishga ajratadi: matter borrowing – moddiy birliklarning (morfema, affiks, yordamchi birliklar) bevosita o‘zlashuvi hamda pattern borrowing – grammatik model va sintaktik qoliplarning kalkalash asosida qabul qilinishi[17] grammatik o‘zlashmalarni strukturaviy va funksional jihatdan farqlash imkonini beradi.

B. Xayne va T. Kuteva esa kontakt ta’sirida yuzaga keladigan grammatikalizatsiya hodisasini alohida ilmiy yo‘nalish sifatida asoslab, grammatik birliklarning yangi funksional vazifa kasb etishi ko‘pincha til kontaktlari bilan bog‘liq ekanini ta’kidlaydi[18]. Grammatik o‘zlashuv qabul qiluvchi tilning ichki qonuniyatlari hamda struktur va sotsiolingvistik omillar ta’sirida voqelanadi. Bu jarayonda transfer va interferensiya hodisalarini farqlash muhim bo‘lib, transfer grammatik xususiyatlarning tillararo ko‘chishini, interferensiya esa kontakt ta’sirida yuzaga keladigan me’yordan og‘ishlarni ham qamrab oladi. L.P. Krysin o‘zlashmalarning til tizimiga moslashuvi va me’yorlashuvini muhim mezon sifatida ko‘rsatadi[19]. Mazkur yondashuv zamonaviy o‘zbek tilidagi grammatik o‘zlashmalarni tahlil qilishda ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

---

[15] Weinreich U. Languages in Contact: Findings and Problems. – New York: Linguistic Circle of New York, 1953. – P. 5-12.

[16] Haugen E. The Analysis of Linguistic Borrowing // Language. – Baltimore: Linguistic Society of America, 1950. – Vol. 26. – № 2. – P. 210-231.

[17] Matras Y., Sakel J. Grammatical Borrowing in Cross-Linguistic Perspective. – Berlin: Mouton de Gruyter, 2007. – P. 42-58.

[18] Heine B., Kuteva T. Language Contact and Grammatical Change. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – P. 73-89.

[19] Крысин Л.П. Иноязычные слова в современном русском языке. – М: Наука, 1968. – С. 24–31.

O‘zbek tilshunosligida o‘zlashmalar masalasi ko‘proq leksik birliklar doirasida o‘rganilgan. Xususan, U. Qo‘ziyev, O. Shukurov, T. Rahmonov, A. To‘raxojayeva kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘zlashma so‘zlarning tarixiy taraqqiyoti, me’yorlashuvi va uslubiy xususiyatlari tahlil qilingan[20]. Biroq grammatik o‘zlashmalarni mustaqillik davri bosma nashrlari materiali asosida kompleks ravishda o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Mustaqillik davrida o‘zbek tilining xalqaro kommunikatsiyaga integratsiyalashuvi natijasida grammatik o‘zlashuv jarayonlari faollashdi. Xususan, OAV, internet, tarjima amaliyoti va rasmiy diskurs orqali rus hamda ingliz tillariga xos sintaktik modellar o‘zbek tilida keng qo‘llanib, atributiv va predikativ konstruksiyalarning funksional imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu jarayon grammatik o‘zlashuvni lisoniy hamda ijtimoiy-kommunikativ jihatdan kompleks o‘rganishni taqozo etadi.

Bobning “Grammatik o‘zlashma tushunchasi va talqinlari” deb nomlangan ikkinchi faslida grammatik o‘zlashmaning lisoniy mohiyati, leksik o‘zlashuvdan farqi, nazariy talqinlari hamda grammatik qolip, model va konstruksiya tushunchalari o‘rtasidagi farqlar aniqlashtirilgan.

Grammatik o‘zlashma – tillararo kontakt natijasida grammatik morfema yoki struktur qolipning bevosita yoxud replikatsiya orqali qabul qiluvchi til tizimiga o‘tishi va unda muayyan grammatik vazifani bajarishidir[21]. Leksik o‘zlashuvda nomlovchi birlik, grammatik o‘zlashuvda esa grammatik material yoki qurilish modeli o‘zlashadi. O‘zbek tilida kompyuterga, menejerlar shakllari xorijiy leksemalarning milliy grammatik ko‘rsatkichlar orqali morfologik integratsiyalashuvini, turkiy ish asosiga fors-tojikcha be- prefiksining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan beish sifati esa grammatik material o‘zlashuvini ko‘rsatadi. Ushbu birlikning adabiy tilda qo‘llanishi Shuhratning “Shinelli yillar” romanidagi *“Bevatan, beish, boshpanasiz qolgan A’zam...*”[22] jumlasidagi *beish* misoli o‘zlashgan derivatsion morfemaning turkiy asos bilan birikib, o‘zbek tili so‘z yasalish tizimida funksionallashganini ko‘rsatadi.

Sintaktik sathda esa grammatik o‘zlashuv forsiy izofa konstruksiyalarida kuzatiladi. Xususan, *dardi bedavo, shohi jahon* kabi tarixiy birikmalarda aniqlanmishning aniqlovchidan oldin kelishi va komponentlarning *-i* izofa ko‘rsatkichi orqali bog‘lanishi forsiy sintaktik qolipning saqlanganini ko‘rsatadi. Biroq bunday birliklarning hozirgi o‘zbek tilida ko‘pincha yaxlit leksik birlik sifatida qo‘llanishi ularning grammatik faolligi va leksiklashuv darajasini farqlab o‘rganishni talab etadi.

Grammatik o‘zlashuvning nazariy chegaralarini belgilashda grammatik o‘zlashma, grammatik qolip, grammatik model va grammatik konstruksiya tushunchalarini farqlash alohida ahamiyatga ega. Mazkur tushunchalar o‘zaro

[20] Qo‘ziyev U. O‘zbek tilida o‘zlashma so‘zlarning tarixiy taraqqiyoti va me’yorlashuv omillari: filol. fan. d-ri (DSc) diss. – Andijon, 2025. – B. 14

[21] Sakel J. Types of loan: Matter and pattern // Grammatical Borrowing in Cross-Linguistic Perspective / Ed. by Y. Matras, J. Sakel. – Berlin: Mouton de Gruyter, 2007. – P. 15-29.

[22] Шуҳрат. Шинелли йиллар: Роман. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 114.

bog‘liq bo‘lsa-da, ularning lisoniy mohiyati, ifodalash obyekti va tahliliy vazifasi bir xil emas.

Grammatik qolip – muayyan grammatik munosabatni ifodalovchi, turli leksik birliklar asosida takroran voqelanish va yangi birikmalar hosil qilish imkoniyatiga ega lisoniy tuzilishdir. Masalan, maktab hovlisi, universitet binosi, kutubxona eshigi birikmalarida birinchi ot ikkinchi otni aniqlab, qarashlilik yoki aloqadorlik munosabatini ifodalaydi. Ushbu birliklarning leksik tarkibi turlicha bo‘lsa-da, ular [ot + ot + III shaxs egalik qo‘shimchasi] qolipi asosida shakllangan. Mazkur qolip muzey binosi, institut kutubxonasi, tashkilot rahbari kabi yangi birikmalar hosil qilish imkoniyatiga ega. Demak, grammatik qolip alohida birikmaning o‘zi emas, balki shu turdagi birliklarni yuzaga keltiruvchi umumiy lisoniy imkoniyatdir.

Grammatik model – grammatik qolipning tarkibiy qismlari, ularning joylashish tartibi va o‘zaro grammatik munosabatini nazariy jihatdan umumlashtirib ifodalovchi abstrakt tasvirdir. Masalan, *maktab hovlisi, universitet binosi, kutubxona eshigi* birikmalarining umumiy tuzilishi [N_1 + N_2] formulasi orqali modellashtiriladi. Bunda N_1 birinchi otni, N_2 ikkinchi otni bildiradi. Qolip til tizimida real mavjud bo‘lgan birikish imkoniyatini ifodalasa, model ushbu imkoniyatning tarkibiy va grammatik xususiyatlarini ilmiy tavsiflashga xizmat qiladi. Demak, grammatik model qolipning o‘zi emas, balki uning nazariy jihatdan umumlashtirilgan ifodasidir.

Grammatik konstruksiya – grammatik qolipning muayyan leksik birliklar orqali konkret voqelanishidir. Masalan, *maktab hovlisi, universitet binosi, kutubxona eshigi* birikmalari umumiy [ot + ot + III shaxs egalik] qolipining turli konstruksiyalaridir. Demak, qolip umumiy grammatik imkoniyatni, konstruksiya esa uning nutqiy voqelanishini ifodalaydi.

Qolip o‘zlashuvida grammatik material emas, balki manba tilga xos struktur-semantik munosabat qabul qiluvchi til vositalari orqali qayta voqelanadi. Jumladan, inglizcha green economy termini 1989-yilda D. Pearce, A. Markandya va E. Barbierning Blueprint for a Green Economy asarida qayd etilgan[23] hamda 2008-yildan xalqaro ekologik-iqtisodiy diskursda keng ommalashgan[24]. O‘zbek tilida ushbu terminologik modelning voqelanishi 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarorda qo‘llangan yashil iqtisodiyot, yashil texnologiyalar, yashil investitsiyalar, yashil kreditlash, yashil fondlar, yashil xaridlar kabi birikmalarda kuzatiladi[25]. Mazkur birliklar o‘zbek tilining mavjud bitishuv asosidagi [sifat + ot] qolipida shakllangan bo‘lsa-da, yashil sifatining ekologik-iqtisodiy tushunchalarni ifodalovchi otlar bilan birikish imkoniyati xalqaro terminologik model ta’sirida kengaygan. Bunda sintaktik bog‘lanish usuli emas, balki komponentning semantik valentligi yangilangan. Ushbu birikmalar konkret grammatik konstruksiyalar, [sifat + ot] ularning umumiy qolipi, [Adj + N] esa abstrakt grammatik modeli hisoblanadi.

---

[23] Pearce D., Markandya A., Barbier E. Blueprint for a Green Economy. – London: Earthscan, 1989. – P. 192.

[24]United Nations Environment Programme (UNEP). Green Economy Initiative. – 2008. https://www.unep.org/en/explore-topics/resource-efficiency/what-we-do/policy-and-strategy/green-economy

[25] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori. 2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. – 1-ilova, 3-bob, 20-21-bandlar.

Demak, konstruksiya, qolip va model grammatik tuzilishning turli darajalarini, o‘zlashuv esa uning tillararo kontakt bilan bog‘liq shakllanishini ifodalaydi. Har qanday grammatik konstruksiya yoki qolip o‘zlashma sanalmaydi. Buni aniqlashda manba til, qabul qiluvchi tilning tarixiy holati, kontakt natijasidagi struktur o‘zgarishlar va qolipning mahsuldorligi kompleks tahlil qilinishi zarur.

Dissertatsiyaning birinchi bobidagi “Grammatik o‘zlashmalarning turlari va tasniflash mezonlari” deb nomlangan uchinchi faslda grammatik o‘zlashmalarning morfologik va sintaktik turlari, ularning o‘zbek tilida voqelanishi hamda o‘zlashma sifatida belgilanish mezonlari tadqiq etilgan.

Grammatik o‘zlashmalarni tasniflashda J. Sakelning moddiy va o‘zlashuvi haqidagi nazariy qarashlariga asoslanilgan. Moddiy o‘zlashuv grammatik morfemalarning, qolip o‘zlashuvi esa struktur-funksional munosabatlarning tillararo ko‘chishi bilan tavsiflanadi. Mazkur nazariy yondashuv asosida grammatik o‘zlashmalarni morfemik-affiksal, derivatsion qolip, sintaktik-birikmaviy va sintaktik-predikativ yo‘nalishlarda o‘rganish mezonlari belgilangan.

Morfemik-affiksal o‘zlashuv xorijiy derivatsion vositalarning o‘zbek tili so‘z yasalish tizimiga integratsiyalashuvida namoyon bo‘ladi. Jumladan, fors-tojikcha *be-, no-, ser-, ham-* prefikslari, *-kor, -dor, -bon, -mand* suffikslari, moddiy o‘zlashuvni ko‘rsatadi. *-shunos, -soz, -noma, -goh* kabi elementlar affiksoidlik xususiyatlari bilan, arabiy *-iy, -viy, -iyat, -an* hamda xalqaro *-izm, -ist, -logiya, -atsiya* elementlari esa morfologik integratsiyalashuv darajasi va derivatsion faolligi bilan farqlanadi.

Ikkinchi yo‘nalish – o‘zlashgan derivatsion vositalarning o‘zbek tili so‘z yasash tizimida voqelanishi. Xorijiy tillardan o‘zlashgan so‘z yasovchi affiks va affiksoidlar o‘zbek tilining ichki derivatsion imkoniyatlari bilan uyg‘unlashib, turli manbali asoslardan yangi birliklar hosil qilishda ishtirok etadi. Jumladan, fors-tojikcha *be-, no-, ser-, ham-* prefikslari turkiy asoslar bilan birikib, *beish, notekis, sersuv, hamyurt; -zor, -shunos, -soz* vositalari esa *o‘tzor, tilshunos, yo‘lsoz* kabi yasama birliklarni shakllantirgan. Arabiy kitob asosining forsiy *-xon* bilan birikishidan *kitobxon*, xalqaro mashina asosining *-soz* bilan birikishidan mashinasoz so‘zlari hosil bo‘lgan. Bu misollar xorijiy derivatsion materialning o‘zbek tili so‘z yasash tizimiga integratsiyalashganini ko‘rsatadi. *Sportchi, raqamlashtirish* kabi birliklarda esa o‘zlashma asoslar milliy yasovchi vositalar orqali shakllangan. Xorijiy affikslarning o‘zbekcha asoslar bilan birikishi moddiy o‘zlashuv doirasida, xorijiy asoslarning milliy affikslar orqali yasalishi esa derivatsion integratsiya doirasida baholanadi. Struktur qolip o‘zlashuvi uchun manba tilga xos derivatsion munosabatning o‘zbek tiliga ko‘chganini alohida dalillash talab etiladi.

Sintaktik-birikmaviy o‘zlashuv xorijiy bog‘lanish usullari va struktur munosabatlarning o‘zbek tilida voqelanishi bilan bog‘liq. Forsiy *dardi bedavo, shohi jahon, nuri ma’rifat* kabi izofali birikmalarda [ot + izofa ko‘rsatkichi + aniqlovchi] tuzilishining saqlanishi tarixiy sintaktik o‘zlashuvni ko‘rsatadi. Mazkur konstruksiyalarning leksiklashuvi va funksional-uslubiy xususiyatlari ularning hozirgi o‘zbek tilidagi grammatik maqomini belgilashda muhimdir.

Ingliz tili ta’siridagi *yashil iqtisodiyot, yashil texnologiyalar, yashil investitsiyalar, yashil kreditlash* kabi birliklarda esa xalqaro [green + N]

terminologik-semantik modeli o‘zbek tilining mavjud [sifat + ot] qolipi orqali ifodalangan. Bunda bitishuv usuli saqlangan holda yashil sifatining semantik valentligi kengaygan. Mazkur hodisa yangi sintaktik qolipning bevosita o‘zlashuvi emas, balki mavjud grammatik tuzilish doirasidagi semantik replikatsiya sifatida baholanadi.

Sintaktik-predikativ o‘zlashuv gap qurilishi, predikativ munosabatlar va sintaktik boshqaruvning tillararo kontakt ta’sirida o‘zgarishini o‘rganishga qaratilgan. Rasmiy nutqdagi qaror qabul qilindi, hisobot taqdim etildi, taklif ma’qullandi kabi konstruksiyalar rus tilidagi muqobil modellar bilan struktur jihatdan qiyoslanadi. Ularning o‘zbek tiliga xos majhul nisbat va analitik fe’l vositalari orqali shakllanishi hisobga olinib, grammatik transfer va interferensiya hodisalari tarixiy hamda struktur muvofiqlik mezonlari asosida farqlanadi.

Grammatik o‘zlashmalarni tasniflashda xorijiy manba, grammatik material yoki struktur munosabatning o‘zlashuvi, tizimli integratsiyasi va yangi birliklarda voqelanishi asosiy mezonlar sifatida belgilangan. Shu asosda grammatik o‘zlashuvning leksik o‘zlashuv, morfologik integratsiya, tarjima kalkasi va struktur o‘xshashlikdan farqi hamda morfosintaktik xususiyatlari aniqlashtirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘zbek tiliga forsiy va arabiy izofalarning grammatik o‘zlashuvining lisoniy xususiyatlari”** deb nomlanib, unda izofalar donor tillarga xos grammatik munosabatlarning o‘zbek tilida voqelanishi asosida tadqiq etilgan. Ularning grammatik o‘zlashuv maqomi komponentlar tartibi, izofa ko‘rsatkichining saqlanishi yoki yo‘qolishi, qaratqich-egalik shakllarining faollashuvi hamda struktur-semantik yaxlitlashuv va leksiklashuv mezonlari asosida aniqlangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobining birinchi fasli “O‘zbek tilida forsiy izofalarning grammatik o‘zlashuvi va lisoniy xususiyatlari” deb nomlanib, unda forsiy izofalarning o‘zbek tili grammatik tizimiga o‘zlashuvi, morfologik va sintaktik xususiyatlari hamda leksiklashuv jarayonlari tadqiq etilgan. P. Samvelian izofani nominal komponentlar o‘rtasidagi tobelanish munosabatini ifodalovchi frazaviy affiks sifatida talqin etib, uning mustaqil leksik ma’no emas, grammatik bog‘lanishni yuzaga chiqarishini asoslaydi[26]. L. Johansonning tillararo kod nusxalanishi nazariyasiga ko‘ra, chet manbali murakkab birliklar qabul qiluvchi tilning morfosintaktik tizimiga moslashib, dastlabki shaklidan farqlanuvchi grammatik xususiyatlar kasb etishi mumkin[27]. M. Amonov esa fors-tojik izofali konstruksiyalarning o‘zbek tiliga kirib kelishi, struktur integratsiyasi va shakliy o‘zgarishlarini tadqiq etgan[28]. Forsiy izofalarning o‘zbek tiliga o‘zlashuvi tayyor leksik birliklar bilan cheklanmay, izofa ko‘rsatkichi va nominal bog‘lanish munosabatining o‘zbek tili grammatik tizimiga integratsiyalashuvida ham namoyon bo‘lishi asoslangan. Grammatik ko‘rsatkichning saqlanishi, konstruksiyaning morfologik moslashuvi va leksiklashuvi tarixiy grammatik o‘zlashuvning o‘zaro bog‘liq lisoniy jarayonlari sifatida baholangan. *Dardi dil,*

[26] Samvelian P. A (phrasal) affix analysis of the Persian Ezafe // Journal of Linguistics. – 2007. – Vol. 43, № 3. – P. 605-645.
[27] Johanson L. Code-copying in Irano-Turkic // Language Sciences. – 1998. – Vol. 20, № 3. – P. 325-337.
[28] Amonov M. Persian-Tajik Izafa Constructions in The Uzbek Language and Their Functional Scope // American Journal of Philological Sciences. – 2025. – Vol. 5, № 5. – P. 203-207.

shabi hijron, chashmi giryon, guli surx konstruksiyalarida hokim komponentning oldin kelishi va *-i* izofa ko‘rsatkichi orqali tobe komponentga bog‘lanishi forsiy nominal modelning saqlanganini ko‘rsatadi. *Guli surx – qizil gul* qiyosida forsiy hokim-tobe tartibi o‘zbek tiliga xos aniqlovchi-aniqlanmish munosabatidan farqlanadi. M. Amonov tadqiqotida *tarjimayi hol, obi hayot (ot+ot), janobi oliy, volidayi muhtarama (ot+sifat), bulbuli go‘yo, sarvi ravon, obi ravon (ot+sifatdosh)* kabi konstruksiyalarning ajratilishi izofaning turli grammatik kategoriyalarga mansub komponentlarni bog‘lash xususiyatini tasdiqlaydi. Izofali birliklarning o‘zbek tili morfologik vositalari bilan integratsiyalashuvi *dardi dilimni (dard-i dil-im-ni), ruhi pokingga (ruh-i pok-ing-ga), savdoyi ishqing (savdo-yi ishq-ing)* shakllarida kuzatiladi. Ularda *-i/-yi* izofa ko‘rsatkichlari komponentlararo ichki bog‘lanishni, o‘zbek tiliga xos egalik va kelishik affikslari esa konstruksiyaning tashqi grammatik munosabatlarini ifodalaydi. Forsiy izofalarning o‘zbek tili grammatik tizimiga integratsiyalashuvi izofa ko‘rsatkichining o‘zbekcha leksik va derivatsion asoslar bilan birikishida ham namoyon bo‘ladi. Jumladan, Abdulla Qahhorning “Mayiz yemagan xotin” hikoyasidagi *“Sadqai erkak keting...”* hamda *“Sadqai odam keting-e, ayb emasmi?!”* jumlalarida “*sadqa-i*” izofali shakli turli nominal komponentlar bilan qo‘llangan. M. Amonov tomonidan Hakim Nazir asaridan keltirilgan “*Onayi zor achinib dedi”* jumlasida esa “*ona-yi zor*” konstruksiyasi izofaning ot va sifat o‘rtasidagi atributiv munosabatni ifodalash xususiyatini namoyon etadi. Mazkur misollar forsiy izofaga xos grammatik bog‘lanishning o‘zbek tilidagi leksik-grammatik birliklar bilan voqelanishini ko‘rsatadi. Sadqai shaklining frazeologik turg‘unlashuvi va onayi zor birikmasining tarixiy konstruksiya sifatida saqlanishi izofa qolipining erkin mahsuldorligini emas, balki o‘zlashgan grammatik munosabatning milliy til tizimiga integratsiyalashuvi va leksiklashuvini dalillaydi. Demak, izofaning grammatik o‘zlashma sifatidagi maqomi uning hozirgi mahsuldorligi bilan emas, balki o‘zlashgan struktur munosabatning saqlanishi va transformatsiyasi bilan belgilanadi. Bu holat tayyor izofali birliklarning leksik o‘zlashuvi bilan grammatik qolipning o‘zbek tili materialida voqelanishini farqlash imkonini beradi. *Dardi sar, dardi bedavo, tarjimai hol, charxi falak birliklarining leksiklashuvi, shuningdek, joyi namoz → joynamoz, halvoyi tar → holvaytar, charxi falak → charxpalak* o‘zgarishlari izofa ko‘rsatkichining ayrim konstruksiyalarda qisqarishi va dastlabki grammatik munosabatning leksik yaxlitlikka aylanishini ko‘rsatadi. Tahlillar forsiy izofalarning o‘zbek tilida faqat tayyor leksik birliklar tarkibida emas, balki tarixiy grammatik ko‘rsatkich va nominal bog‘lanish modeli sifatida ham voqelanganini asoslaydi. Izofaning *-i/-yi* ko‘rsatkichlari, hokim-tobe komponentlar tartibi, o‘zbekcha egalik va kelishik affikslari bilan birikishi hamda turli tarkibli konstruksiyalarda qo‘llanishi uning morfologik va sintaktik integratsiyalashuvini tavsiflaydi. Bunda tarixiy grammatik o‘zlashuv, o‘zbek tili qonuniyatlariga moslashuv va leksiklashuv o‘zaro bog‘liq, biroq farqlanuvchi jarayonlar sifatida namoyon bo‘ladi.

II bobning “Arabiy izofalarning o‘zbek tili grammatik sathiga o‘zlashishi va moslashuv jarayonlari” nomli ikkinchi faslida arabiy izofalarning struktur-morfologik xususiyatlari va grammatik integratsiyasi E. Haugenning importatsiya

va substitutsiya tamoyillari[29] hamda J. Sakelning moddiy va qolip o‘zlashuvi tasnifi[30] asosida tahlil qilingan. Izofali konstruksiyalarning tarixiy strukturasi saqlanishi, leksiklashuv jarayonida grammatik munosabatning zaiflashuvi va yaxlit birliklarning o‘zbekcha morfologik paradigmaga moslashuvi farqlanib, tayyor konstruksiyalar o‘zlashuvi bilan izofa qolipining mustaqil mahsuldorligi o‘rtasidagi chegara aniqlashtirilgan.

Arab tilida al-iḍafa hokim (muḍaf) va qaratqich kelishigidagi tobe (muḍaf ilayh) komponentlardan tashkil topgan nominal konstruksiyadir. *Kitab al-ṭalib (“talabaning kitobi”), bayt al-ḥikma (“hikmat uyi”)* birikmalarida hokim komponentning oldin, tobe komponentning esa genitiv shaklda kelishi modelning asosiy grammatik belgilaridir. Arabiy izofaning o‘zbek yozma an’anasidagi tarixiy ko‘rinishlari Alisher Navoiyning *Muhokamat ul-lug‘atayn, Majolis un-nafois, Mezon ul-avzon, Navodir ush-shabob, G‘aroyib us-sig‘ar* asarlari nomida kuzatiladi. Jumladan, lug‘atayn komponentida arab tiliga xos ikkilik, majolis, nafois, avzon shakllarida esa siniq ko‘plik kategoriyasining morfologik belgilari saqlangan. *Ul, un, us, ush* ko‘rinishlari arabcha aniqlik artiklining fonetik variantlari bo‘lib, ularning izofali konstruksiyalar tarkibida qo‘llanishi o‘zbek tilida mustaqil grammatik affiks shakllanganini emas, balki manba tilga xos morfologik materialning tarixiy saqlanishini ko‘rsatadi. Binobarin, mazkur birliklar leksik material bilan birga arabiy nominal bog‘lanishning struktur belgilarini ham mujassamlashtirgan tayyor nominativ konstruksiyalar sifatida baholangan.

Arabiy izofalarning o‘zbek tili grammatik tizimiga moslashuvi tarixiy nominal konstruksiyalarning leksiklashuvi va morfologik yaxlitlashuvi jarayonida yanada aniq namoyon bo‘ladi. *Abdulloh, Abdurahmon, Abdulaziz, Nuriddin, Shamsiddin, Zayniddin* kabi antroponimlar dastlab arabiy izofa asosida shakllangan bo‘lsa-da, hozirgi o‘zbek tilida yagona leksik birlik sifatida amal qiladi. Xususan, *Abdurahmonga, Nuriddinni, Zayniddinimiz* shakllarida o‘zbekcha kelishik va egalik ko‘rsatkichlari tarixiy konstruksiyaning alohida komponentlariga emas, yaxlitlashgan antroponimik asosga qo‘shiladi. Bu hol arabiy izofaga xos dastlabki sintaktik munosabatning leksiklashuv natijasida grammatik mustaqilligini yo‘qotishi va o‘zlashgan birlikning o‘zbekcha so‘z o‘zgartirish paradigmasiga integratsiyalashuvini ko‘rsatadi. *Qisas ul-anbiyo – payg‘ambarlar qissasi, Mantiq ut-tayr – qushlar nutqi, Mezon ul-avzon – vaznlar mezoni, Rohat ul-qulub – qalblar rohati* kabi struktur muqobillarning qiyosiy tahlili esa arabiy hokim-tobe tartibining o‘zbek tilida tobe-hokim munosabati hamda egalik ko‘rsatkichlari orqali ifodalanishini aniqlashga xizmat qilgan. Bunda mazmuniy munosabatning saqlanishi grammatik modelning aynan o‘zlashganini anglatmasligi asoslangan.

Arabiy izofali konstruksiyalarning zamonaviy o‘zbek tilidagi qo‘llanishi neyming va institutsional nominatsiya materiallari orqali ham yoritilgan. Jumladan, Farg‘ona viloyatiga oid rasmiy hujjatda qayd etilgan *“Dorul Ilm” NTM* nomi arabiy izofali nominativ andozaning hozirgi ta’lim muassasalari nomlanishida

[29] Haugen E. The Analysis of Linguistic Borrowing // Language. – Baltimore: Linguistic Society of America, 1950. – Vol. 26. – № 2. – P. 212-214.

[30] Sakel J. Types of Loan: Matter and Pattern // Grammatical Borrowing in Cross-Linguistic Perspective. – Berlin–New York: Mouton de Gruyter, 2007. – P. 15-29.

qo‘llanayotganini tasdiqlaydi[31]. *Dorul Ilm va Dorul hadis* konstruksiyalarida dorul-qismining takrorlanishi, ikkinchi komponentning esa almashishi arabiy izofali nominativ andozaning variantli qo‘llanish imkoniyatini ko‘rsatadi. *Bayt ul-hikma va Dorul-hadis al-Avvomiyya* nomlarining zamonaviy rasmiy hamda ilmiy-publitsistik matnlarda uchrashi esa tarixiy va xorijiy nominativ birliklarning o‘zbek kommunikativ muhitidagi davomiyligini aks ettiradi[32]. Arabiy izofalarning grammatik maqomi struktur saqlanish, morfologik material, leksiklashuv, integratsiyalashuv va konstruksion mahsuldorlik mezonlari asosida aniqlashtirilgan. Tayyor nominativ birliklar, nomlash andozalari va struktur qolip o‘zlashuvi farqlanib, tarixiy nominal bog‘lanishning saqlanishi, leksiklashuvda grammatik funksiyasining zaiflashuvi hamda o‘zbek tili morfologik tizimiga moslashuvi asoslangan. Biroq arabiy izofaning o‘zbekcha leksik asoslarda mustaqil mahsuldor qolipga aylangani tasdiqlanmagan.

II bobning 3-fasli “Arabiy va forsiy izofalarning transformatsiyasi” deb nomlanib, unda tarixiy izofali konstruksiyalarning o‘zbek tili grammatik tizimiga moslashuvi, struktur-semantik o‘zgarishlari va leksiklashuv xususiyatlari qiyosiy tahlil qilingan. Arabiy va forsiy izofalarning tarixiy matnlardagi qo‘llanishi hozirgi o‘zbek adabiy tili materiallari bilan taqqoslanib, ularning komponentlar tartibi, grammatik bog‘lanish vositalari, semantik yaxlitlashuvi hamda funksional-uslubiy xususiyatlaridagi o‘zgarishlar aniqlangan. Tarixiy izofali birliklarning bir qismi o‘zbek tiliga xos sintaktik munosabatlar orqali qayta ifodalangan bo‘lsa, ayrimlari dastlabki tuzilishi va obrazli mazmunini saqlagan holda leksiklashgan.

Konseptual-transformatsion tahlilda izofali birliklarning tarixiy va zamonaviy shakllari muayyan konseptual maydon doirasida qiyoslangan. Xususan, *jon konsepti bilan bog‘liq joni aziz → aziz jon, rishtayi jon → jon rishtasi* kabi muqobil ifodalarda komponentlar tartibining o‘zgarishi va izofali bog‘lanishning o‘zbekcha aniqlovchili yoki egalikli birikmalar orqali ifodalanishi kuzatiladi. Bunda *aziz jon, jon rishtasi* kabi shakllar tarixiy birliklarning grammatik jihatdan moslashgan muqobillari sifatida baholanadi. *Qasdi jon, rishtayi jon* kabi konstruksiyalarning esa tarixiy shaklda ham qo‘llanishi izofalarning barcha holatlarda bir xil transformatsiyaga uchramasligini, ayrim birliklarda struktur va semantik barqarorlik saqlanishini ko‘rsatadi.

Semantik va sintaktik transformatsiya izofali konstruksiyalarning mazmunini o‘zbek tilining mavjud grammatik vositalari orqali qayta ifodalashda namoyon bo‘ladi. Arabiy *ahl al-ilm* birikmasining *ilm ahli, ilm egalari, bayt al-ḥikma* konstruksiyasining *hikmat uyi* shaklida ifodalanishi nominal munosabatlarning o‘zbekcha qaratqich-egalik va aniqlovchili birikmalar orqali voqelanishini ko‘rsatadi. Forsiy *dardi bedavo → davosi yo‘q dard, nuri ma’rifat → ma’rifat nuri, shohi jahon → jahon shohi* kabi muqobil shakllarda izofa ko‘rsatkichining tushishi, komponentlar tartibining o‘zgarishi hamda egalik va sifatlovchi munosabatlarining faollashuvi kuzatiladi.

[31]O‘zbekiston Respublikasi Farg‘ona viloyati rasmiy portali. Farg‘ona tumani Avval hududidagi “Dorul Ilm” nodavlat ta’lim muassasasi qayd etilgan hujjat. 2025. https://api3.fergana.uz/files/150400/regulatory

[32] O‘zbekiston musulmonlari idorasi.“Dorul-hadis al-Avvomiyya” markazi o‘rtasida ilmiy hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. https://muslim.uz/oz/e/post/48523-tii-va-dorul-hadis-al-avvomiyya-markazi-o-rtasida-ilmiy-hamkorlik-yo-lga-qo-yildi

Morfologik integratsiya izofali konstruksiyalarning yaxlit leksik asos sifatida o‘zbekcha grammatik ko‘rsatkichlarni qabul qilishi yoki ularning mazmuni yangi yasama birliklar orqali ifodalanishida namoyon bo‘ladi. Jumladan, *taqvo egalari → taqvodorlar* muqobilligida egalik ma’nosi -dor vositasida, *ravnaqi ishlar → ravnaqli ishlar* shaklida esa belgi munosabati -*li* qo‘shimchasi orqali ifodalanadi. Izofali birliklarning -*lik, -li, -siz, -chi* kabi yasovchi vositalar bilan munosabati ularning o‘zbek tili derivatsion tizimiga moslashish imkoniyatlarini ochib beradi. Bunda izofali birikmaning o‘zbekcha muqobil bilan almashishi hamda izofa tarkibidagi leksiklashgan asosning bevosita affiks qabul qilishi o‘zaro farqlangan.

Frazeologik va poetik transformatsiya izofalarning obrazli ma’nosi, ekspressivligi va uslubiy vazifasining saqlanishi yoki o‘zgarishi bilan tavsiflanadi. *Tavqi la’nat, zakoti husn, dardi bedavo, taxti ravon* kabi tarixiy birliklarda komponentlarning semantik yaxlitlashuvi natijasida dastlabki grammatik munosabatning mustaqilligi zaiflashib, konstruksiya turg‘un nominativ yoki obrazli ifoda sifatida qo‘llanadi. *Sho‘rpeshona* kabi birliklarda esa tarixiy tarkibiy munosabat yaxlit so‘z doirasida barqarorlashgan. Bunday o‘zgarishlar arabiy izofalarning diniy-ilmiy tushunchalarni nomlashda, forsiy izofalarning esa badiiy-obrazli ifodada saqlanish xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq. Izofalarning struktur jihatdan qayta shakllanishi, o‘zbekcha grammatik vositalarga moslashuvi va leksiklashuvi ularning dastlabki sintaktik munosabatdan turg‘un leksik-frazeologik birliklarga o‘tishini ko‘rsatadi. Natijada izofalarning hozirgi grammatik maqomi tarixiy tuzilishi, semantik yaxlitlashuv darajasi va qo‘llanish xususiyatlari asosida aniqlashtirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Rus, ingliz tillari ta’siridagi grammatik o‘zlashmalarning faollashuvi va me’yorlashuvi”** deb nomlanib, uning “Grammatik o‘zlashmalarning faollashuvi va unga ta’sir etuvchi ijtimoiy-kommunikativ omillar” nomli birinchi faslida grammatik birliklarning kontakt ta’sirida faollashuvi, moslashuvi va me’yorlashuvi tadqiq etilgan.

Grammatik konstruksiyalarning funksional faollashuvi *“xavfsiz harakat” loyihasi doirasida, investitsiya loyihasini amalga oshirish doirasida* kabi birliklarda kuzatiladi. Model rus tilidagi *в рамках проекта, в рамках реализации проекта* konstruksiyalariga struktur-semantik jihatdan muvofiq bo‘lsa-da, o‘zbek tilida milliy sintaktik vositalar orqali shakllanadi. Ko‘makchili konstruksiyalarning semantik differensiatsiyasi *murojaat yuzasidan tekshiruv, qonunga muvofiq qaror, shartnoma asosida to‘lov, dastur orqali moliyalashtirish* kabi modellarda namoyon bo‘ladi. Ularda yuzasidan muayyan masalaga munosabatni, muvofiq normativ moslikni, asosida huquqiy tayanchni, orqali vositani ifodalaydi. Bu hol rasmiy-publitsistik diskursda mavjud sintaktik vositalarning kommunikativ vazifaga ko‘ra tanlanishi va semantik ixtisoslashuvini ko‘rsatadi.

Rasmiy-huquqiy diskursda murakkab nominativ konstruksiyalarning faollashuvi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi 295-son va 2023-yil 20-noyabrdagi 612-son qarorlari materiallarida tahlil qilingan. *Davlat xizmatlarini ko‘rsatish, murojaatlarning ko‘rib chiqilishini kuzatib borish, davlat xizmatlarini ko‘rsatishni rad etish, belgilangan tartibda qayta murojaat qilish* kabi birliklarda harakat nomi, kelishik, egalik va analitik fe’l vositalari murakkab sintaktik

munosabatlarni shakllantiradi. Xususan, *davlat xizmatlarini ko‘rsatishni rad etish konstruksiyasida* bir harakat ikkinchi harakatning obyekti sifatida voqelanadi. Mazkur modellar rus tilidagi rasmiy nominalizatsiya konstruksiyalari bilan funksional yaqinlikka ega bo‘lsa-da, o‘zbek tilining ichki grammatik imkoniyatlari asosida shakllanadi.

Predikativ konstruksiyalarning faollashuvi *so‘rovnoma avtomatik tarzda vakolatli organga yuboriladi, hujjatlar ko‘rib chiqiladi, ma’lumotnoma shakllantiriladi, qaror qabul qilinadi* kabi birliklarda kuzatiladi. Ularda majhul nisbat, kelishik va analitik fe’l vositalari bajaruvchidan ko‘ra harakat jarayoni hamda natijasini ta’kidlaydi. Bu xususiyat rasmiy-institutsional kommunikatsiyada predikativ munosabatlarning funksional ixtisoslashuvini namoyon etadi.

Raqamli kommunikatsiyada morfosintaktik integratsiya *platformaga ulanish, serverdan ma’lumot olish, faylni yuklash, profilni tasdiqlash, monitoringni amalga oshirish* kabi konstruksiyalarda ifodalanadi. Ingliz tilidan o‘zlashgan leksik asoslar o‘zbekcha kelishik va fe’l boshqaruvi vositalari bilan birikib, milliy grammatik tizimga moslashadi. *Raqamli platforma, elektron hujjat, onlayn maslahat, avtomatik boshqaruv* kabi terminologik birliklarda esa mavjud [sifat + ot] qolipining leksik-semantik imkoniyatlari kengayadi. Bu hodisalar bevosita grammatik qolip o‘zlashuvidan farqli ravishda morfosintaktik integratsiya va mavjud sintaktik modelning funksional faollashuvini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobidagi “O‘zbek tilida rus tilidan o‘zlashgan grammatik qoliplarning faollashuvi va voqelanishi” deb nomlangan ikkinchi faslda o‘zbek-rus til kontaktlari ta’sirida grammatik konstruksiyalarning qayta voqelanishi, struktur muvofiqligi, yangi sintaktik birliklar hosil qilish imkoniyatlari hamda transfer va interferensiya xususiyatlari tadqiq etilgan.

So‘z birikmasi sathida rus tilining o‘zbek tili sintaktik qurilishiga ta’siri tayyor leksik birliklarning qabul qilinishi bilangina cheklanmay, muayyan sintaktik munosabatlarni ifodalovchi konstruksiyalarning o‘zbek tiliga xos grammatik vositalar orqali qayta shakllanishida ham namoyon bo‘ladi. Xususan, rus tilidagi взять под контроль konstruksiyasiga muqobil nazorat ostiga olmoq birikmasida predlogli boshqaruv munosabati o‘zbek tilining ostiga ko‘makchi ot shakli va olmoq fe’li yordamida ifodalangan. Ushbu konstruksiyaning muhim xususiyati shundaki, uning tarkibiy modeli boshqa leksik birliklar bilan to‘ldirilganda ham umumiy sintaktik tuzilish saqlanadi.

Mazkur modelning o‘zbek tilidagi tarkibiy ko‘rinishini [ot + ostiga + olmoq] tarzida belgilash mumkin. Ushbu qolip asosida himoya ostiga olmoq, vasiylik ostiga olmoq, homiylik ostiga olmoq, nazorat ostiga olmoq kabi birikmalar shakllangan. Biroq mazkur misollarning aksariyatida arabiy yoki forsiy qatlamga mansub leksik birliklar qatnashgani sababli, konstruksiyaning leksik tarkibdan mustaqil ravishda amal qilish imkoniyatini aniqlash uchun turkiy asosli birliklar bilan hosil qilinadigan birikmalarni ham qiyoslash zarur. Shu jihatdan himoya ostiga olmoq, qo‘l ostiga olmoq, kuzatuv ostiga olmoq, boshqaruv ostiga olmoq, qaramog‘i ostiga olmoq kabi birikmalar konstruksiyaning o‘zbekcha leksik asoslar bilan to‘ldirilish imkoniyatini ko‘rsatadi. Bunda qo‘riq, asrov, kuzatuv, boshqaruv birliklari turkiy asosli bo‘lib, ularning ostiga olmoq komponenti bilan birikishi

umumiy sintaktik qolipning saqlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, kuzatuv ostiga olmoq birikmasi rus tilidagi взять под наблюдение modeliga, qo‘riq ostiga olmoq birikmasi esa взять под охрану konstruksiyasiga struktur jihatdan muqobil bo‘lishi mumkin. Bunda o‘zbekcha birikmalarning tarkibiy qismlari rus tilidan olinmagan bo‘lsa-da, predikativ munosabatni tashkil etishning o‘xshash usuli kuzatiladi.

Rus tilidagi *привлечь к ответственности* konstruksiyasiga muqobil javobgarlikka tortmoq birikmasida ham shunga yaqin struktur moslashuv kuzatiladi. Rus tilidagi к predlogi bilan ifodalangan munosabat o‘zbek tilida jo‘nalish kelishigining -ga ko‘rsatkichi orqali, predikativ markaz esa tortmoq fe’li yordamida ifodalanadi. Ushbu model asosida *jinoiy javobgarlikka tortmoq, ma’muriy javobgarlikka tortmoq, intizomiy javobgarlikka tortmoq* kabi atributiv kengaygan birikmalar hosil bo‘lgan. Biroq konstruksiyaning o‘zbekcha leksik birliklar bilan to‘ldirilish imkoniyatini ochib berishda faqat javobgarlik komponenti bilan chegaralanish yetarli emas. Rus tilidagi привлечь к работе, привлечь к участию, привлечь к сотрудничеству singari konstruksiyalar bilan qiyoslash asosida [ot + jo‘nalish kelishigi + tortmoq] qolipining kengroq semantik imkoniyatlarini tekshirish mumkin. Jumladan, *ishga tortmoq, kurashga tortmoq, o‘yinga tortmoq, bahsga tortmoq, bellashuvga tortmoq* birikmalarida shaxsni muayyan faoliyat yoki jarayonga jalb etish ma’nosi ifodalanadi. Bu birliklarda ish, kurash, o‘yin, tortmoq komponentlari turkiy leksik qatlamga mansub bo‘lib, grammatik munosabat ham o‘zbek tilining jo‘nalish kelishigi vositasida yuzaga chiqadi.

Rasmiy-huquqiy diskursda *считать утратившим силу* modeliga muqobil o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin konstruksiyasi tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-avgustdagi PF-197-son Farmonida mazkur birlik bilan birga “Farmonning ijrosini nazorat qilish ... zimmasiga yuklansin” konstruksiyasi ham qo‘llangan[33]. Birinchi modelda [*predikativ komponent + deb + hisoblamoq*], ikkinchisida esa [*harakat nomli birikma + shaxs zimmasiga + yuklamoq*] qoliplari voqelanadi. Ularda ruscha predikativ va boshqaruv munosabatlari o‘zbek tilining deb vositasi, kelishik qo‘shimchalari, harakat nomi va majhul nisbat shakllari orqali qayta tashkil etilgan.

Gap sathida rus tilidagi *“Мы открылись”* modelining o‘zbekcha reklama diskursida voqelanishi alohida empirik materiallar asosida o‘rganilgan. Havas savdo tarmog‘ining e’lonlarida *“Biz “Tashkent city”da ochildik!”, “Biz ochildik va siz bilan foto-hisobotni bo‘lishamiz”, Texnomart reklamasida esa “Olmaliq, biz ochildik!” konstruksiyalari ruscha “Мы открылись”* modeli bilan parallel qo‘llangan[3]. Ushbu birliklar [*biz + ochildik*] predikativ modelining o‘rin holi, murojaat komponenti va teng bog‘langan ikkinchi kesim bilan kengayishini ko‘rsatadi. Biroq “Biz ochildik” shakli o‘zbek tilidagi odatiy *do‘konimiz ochildi, filialimiz ish boshladi* konstruksiyalaridan predikativ subyekt tanlovi bilan farqlanadi. Shu sababli ushbu holat rus tiliga xos semantik-sintaktik

[33] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-avgustdagi PF-197-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-6169241

munosabatning kontakt ta’sirida qayta voqelanishi va kontekstga bog‘liq interferensiya ehtimoli sifatida baholangan. Modelning nutqda uchrashi uning umumadabiy me’yorlashganini yoki yangi mustaqil grammatik qoliplar hosil qilganini anglatmaydi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobidagi “Ingliz tilidan o‘zlashgan grammatik qoliplarning struktur-funksional integratsiyasi” nomli uchinchi faslda ingliz tili ta’siridagi struktur-semantik modellarning faollashuvi, yangi birikmalar hosil qilishi va o‘zbek tili grammatik tizimiga moslashuvi tadqiq etilgan. J. Sakel tasnifiga ko‘ra, qolip o‘zlashuvi xorijiy shaklning emas, struktur-semantik munosabatning milliy grammatik vositalar orqali qayta voqelanishidir[34]. Ingliz tilidagi digital *economy, digital education, digital platform, digital infrastructure* modellariga muqobil *raqamli iqtisodiyot, raqamli ta’lim, raqamli platforma, raqamli infratuzilma* birliklarida [*raqamli* + ot] konstruksiyasining terminologik mahsuldorligi kuzatiladi. Mazkur model asosida *raqamli xizmatlar, raqamli boshqaruv, raqamli transformatsiya* kabi birliklarning shakllanishi inglizcha texnologik tushunchalarning o‘zbek tilidagi mavjud atributiv munosabat doirasida qayta ifodalanishini ko‘rsatadi. Xuddi shuningdek, *smart city, smart home, smart technology* konstruksiyalariga muqobil *aqlli shahar, aqlli uy, aqlli texnologiya birliklari* [*aqlli + ot*] modelining yangi terminologik vazifada faollashganini ko‘rsatadi. *Aqlli hisoblagich, aqlli transport tizimi, aqlli qurilma* birikmalarida aqlli komponenti insonning intellektual sifatini emas, avtomatlashtirilgan boshqaruv va texnologik funksionallikni ifodalaydi. Bu hodisa mavjud LSQning tashqi semantik model ta’sirida yangi leksik material bilan to‘ldirilishi sifatida izohlangan.

Ingliz tilidagi *healthy food, healthy life, healthy lifestyle, healthy environment* konstruksiyalari bilan qiyoslanganda, o‘zbek tilidagi *sog‘lom ovqat, sog‘lom hayot, sog‘lom turmush tarzi, sog‘lom muhit* birliklarida [*sog‘lom + ot*] atributiv modelining semantik va distributiv imkoniyatlari namoyon bo‘ladi. Xususan, *sog‘lom ovqat* birikmasida sifat oziq-ovqatning salomatlik uchun foydaliligini, sog‘lom hayot konstruksiyasida esa salomatlikni saqlashga yo‘naltirilgan yashash tarzini ifodalaydi. Ushbu modelning real qo‘llanishi 2025-yilgi davlat dasturidagi *sog‘lom ovqatlanish, sog‘lom turmush tarzi*, Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 31-oktabrdagi materialidagi *sog‘lom muhit, sog‘lom hayot tamoyillari* birliklari bilan tasdiqlanadi. Shuningdek, 2026-yil 15-yanvardagi bosma nashrda *sog‘lom hayotning ajralmas tarkibiy qismlari* konstruksiyasi qo‘llangan. Bu dalillar sog‘lom komponentining turli sanalmishlar bilan birikib, salomatlikka oid umumiy atributiv mazmunni ifodalashini ko‘rsatadi. Biroq ushbu qolip o‘zbek tilida avvaldan mavjud bo‘lgani sababli, uning ingliz tilidan yangi LSQ sifatida o‘zlashgani emas, xalqaro sog‘lom turmush diskursi ta’sirida semantik-distributiv jihatdan faollashgani asoslangan. *Startap loyiha, IT loyiha, biznes model* kabi konstruksiyalarda ham inglizcha terminologik modellar o‘zbek tilidagi aniqlovchi–aniqlanmish munosabatining leksik tarkibini kengaytiradi. Ularning *startap*

[34] Sakel J. Types of loan: Matter and pattern // Grammatical Borrowing in Cross-Linguistic Perspective. – Berlin; New York: Mouton de Gruyter, 2007. – P. 15-29.

loyihani rivojlantirish, IT loyihaga mablag‘ ajratish, biznes modelni takomillashtirish shakllarida kelishik va sintaktik boshqaruv munosabatlariga kirishishi struktur-funksional moslashuvni namoyon etishi grammatik konstruksiyalarning semantik va distributiv imkoniyatlari kengayishi qolip replikatsiyasining muhim ko‘rinishidir. Tadqiqotda ingliz tili ta’siridagi leksik integratsiya, struktur-semantik replikatsiya va sintaktik faollashuv farqlanib, raqamli + ot, aqlli + ot, sog‘lom + ot modellarining xalqaro terminologik mazmunni o‘zbekcha grammatik vositalar orqali ifodalashi va qo‘llanish doirasining kengayishi aniqlangan. Struktur muvofiqlik, leksik to‘ldirilish, semantik kengayish va grammatik moslashuv asosiy baholash mezonlari sifatida belgilangan.

XULOSA

1. Grammatik o‘zlashuv donor tilga xos grammatik unsur yoki struktur munosabatning qabul qiluvchi til grammatik tizimida bevosita yoxud uning mavjud lisoniy vositalari orqali qayta voqelanishi bilan tavsiflanadi. O‘zlashgan leksemaning qabul qiluvchi til grammatik ko‘rsatkichlarini qabul qilishi morfologik integratsiyani bildirsa, grammatik o‘zlashuv donor til ta’sirining grammatik qurilish sathida namoyon bo‘lishi bilan farqlanadi.

2. Grammatik o‘zlashmalar moddiy o‘zlashuv va qolip o‘zlashuvi ko‘rinishlarida yuzaga keladi. Moddiy o‘zlashuvda donor tilga mansub grammatik unsur shakliy jihatdan qabul qilinsa, qolip o‘zlashuvida donor tilga xos struktur munosabat qabul qiluvchi tilning mavjud grammatik vositalari orqali qayta voqelanadi.

3. Forsiy izofalar o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyoti davomida grammatik tizimga singib, struktur va funksional jihatdan turli darajada o‘zgarishga uchragan. Ularning bir qismi tarixiy izofiy tuzilishini saqlagan bo‘lsa, boshqa qismi o‘zbek tilining grammatik qonuniyatlariga moslashib, leksiklashgan yoki turg‘unlashgan birliklar sifatida shakllangan.

4. Arabiy va forsiy izofalarning o‘zbek tilidagi taraqqiyoti struktur o‘zgarish, grammatik moslashuv, semantik yangilanish, leksiklashuv va frazeologik barqarorlashuv jarayonlari bilan xarakterlanadi. Ushbu jarayonlar natijasida izofiy qurilmalarning bir qismi o‘zbekcha birikma modellariga transformatsiyalangan, ayrimlari esa tarixiy shaklini saqlagan holda zamonaviy til tizimida qo‘llanishda davom etgan.

5. Arabiy va forsiy izofalarning zamonaviy o‘zbek tilidagi funksional xususiyatlari ularning qo‘llanish sohasi va uslubiy vazifalarida namoyon bo‘ladi. Ularning ayrimlari badiiy va diniy nutqda obrazlilik hamda ekspressivlikni ifodalasa, boshqa qismi publitsistik va ijtimoiy kommunikatsiyada barqaror qo‘llanadigan birliklar sifatida funksional faolligini saqlagan.

6. Grammatik o‘zlashmalarning faollashuvi ikki tillilik, tarjima, rasmiy va institutsional muloqot, ommaviy axborot vositalari, kasbiy kommunikatsiya hamda raqamli muhit kabi ijtimoiy-kommunikativ omillar bilan bog‘liq. Mazkur omillar

o‘zlashgan grammatik birlik va qoliplarning qo‘llanish doirasini kengaytirib, ularning turli nutqiy vaziyatlarda faollashuviga sharoit yaratadi.

7. Rus tili bilan davomli kontakt o‘zbek tilida ayrim grammatik qolip va konstruktsiyalarning, xususan, analitik fe’l birikmalari, majhul nisbatli qurilmalar hamda rasmiy-publitsistik nutqqa xos sintaktik modellarning faollashuviga ta’sir ko‘rsatgan. Bunday konstruktsiyalar o‘zbek tilining mavjud grammatik vositalari asosida voqelanib, yangi leksik birliklar bilan birikishi va takroriy qo‘llanishi natijasida funksional jihatdan kengaygan.

8. Rus tili ta’siridagi grammatik qoliplarning o‘zbek tilida voqelanishi donor til modelining aynan takrorlanishi bilan chegaralanmaydi. Struktur munosabatning o‘zbek tili vositalari orqali qayta ifodalanishi, yangi leksik komponentlarga yoyilishi va muayyan funksional uslublarda barqarorlashuvi kontakt ta’sirining asosiy ko‘rinishlarini tashkil etadi.

9. Ingliz tili ta’sirida struktur-semantik munosabatlarning o‘zbekcha vositalar orqali qayta voqelanishi va atributiv qoliplarning terminologik kengayishi aniqlangan. Xorijiy leksemalarning grammatik moslashuvi morfologik integratsiya, xorijiy struktur-semantik munosabatlarning milliy vositalar orqali ifodalanishi qolip replikatsiyasi, mavjud modellarning yangi birliklar hisobiga kengayishi esa funksional faollashuv sifatida farqlangan. Mazkur jarayonlarning o‘zaro aloqadorligi va grammatik o‘zlashuvdan farqli jihatlari aniqlashtirilgan.

10. O‘zbek tilidagi grammatik o‘zlashmalar til kontaktlari ta’sirida yuzaga kelib, qabul qiluvchi tilning ichki grammatik qonuniyatlari asosida moslashadi, faollashadi va barqarorlashadi. Ularning lisoniy maqomi grammatik birlik yoki qolipning struktur xususiyati, o‘zbek tili vositalari orqali voqelanishi, morfologik va sintaktik tizimga integratsiyalashuvi, funksional-uslubiy faolligi hamda me’yorlashuv darajasi bilan belgilanadi. Shu jihatdan grammatik o‘zlashuv o‘zbek tilining grammatik qurilishida tashqi lisoniy ta’sir va tilning ichki imkoniyatlari o‘zaro munosabatida kechadigan dinamik lisoniy jarayon hisoblanadi.

SCIENTIFIC COUNCIL №. PhD.03/2025.27.12.Fil.22.03 ON AWARDING OF ACADEMIC DEGREES AT NAMANGAN STATE UNIVERSITY

NAMANGAN STATE UNIVERSITY

QODIROVA DILFUZA GOPIRJON KIZI

LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF GRAMMATICAL BORROWINGS IN THE UZBEK LANGUAGE

10.00.01 – Uzbek Language

ABSTRACT
of the dissertation for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

Namangan – 2026

The theme of the dissertation for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences has been registered with the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under registration number B2024.3.PhD/Fil4945.

The doctoral thesis has been carried out at Namangan State University.

The abstract of the dissertation in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) has been placed on the webpage of the Scientific Council (www.namdu.uz) and on the web-site of educational portal "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:	**Qo'ziyev Umidjon Yandashaliyevich** Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Official opponents:	**Odilov Yorqinjon Rahmonaliyevich** Doctor of Philological Sciences(DSc), Professor
	Hasanov Akbarjon Abdurashidovich Candidate of Philological Science Associate Professor
Leading organization:	**Andijan State University**

Defense of dissertation will take on "____" _____ 2026 at ____ at the meeting of the Scientific Council PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 on award of academic degrees at Namangan State University. Address: 160107, Uzbekistan, Namangan, Baburshah street, 161. (+99869) 227-06-12; Tel.: (+99869) 228-85-01, Fax: (+99869) 228-85-02. Web-site: e-mail: info@namdu.uz, fax: (+99869) 227-07-61; e-mail: info@namdu.uz).

The dissertation can be reviewed in the Information Resourse Center of Namangan State University (Registration number_____). (Address: 160107, Uzbekistan, Namangan, Baburshah street, 161. Tel.: (+99869) 228-85-01) The abstract of dissertation is distributed on ___ _____2026. (Protocol of the register №_____on ____ _____ 2026).

N.M.Uluqov
Chairman of the Scientific Council On award of academic degrees, Doctor of Philological Sciences, professor

O.T.Yuldashev
Scientific Secretary of the Scientific Council On award of academic degrees, Doctor of philosophy at Philological sciences, associate professor

F.I.Karimova
Chairman of the Scientific Council On award of scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, associate professor

INTRODUCTION (Annotation of the Doctor of Philosophy (PhD) Dissertation)

Relevance and necessity of the dissertation topic. In world linguistics, the interaction of languages and changes occurring at the lexical level have been extensively studied in the context of intensifying globalization and intercultural relations. However, structural and functional changes resulting from external linguistic influence on grammatical structure, which is regarded as one of the most stable and relatively closed levels of the language system, continue to pose new challenges for linguists. In particular, the mechanisms involved in the borrowing of grammatical forms and syntactic patterns, as well as their integration into the internal structure of the recipient language, remain a focus of attention in contemporary linguistics. From this perspective, the diachronic and synchronic study of the systemic and structural nature and functional-semantic properties of grammatical borrowings is of particular relevance for identifying the internal regularities of language development and its adaptive potential.

In contemporary linguistics, particular attention is paid to investigating the impact of language contact on grammatical systems. Research in this field examines how grammatical units and structural models characteristic of one language are realized under the influence of another language, how they are restructured by means already available in the recipient language, and how they become integrated into its grammatical structure. Studies of language contact also specifically address grammatical interference, the realization of donor-language structural models in another language, and their adaptation to the system of the recipient language. The fact that the ethnopsychological, cultural, and contact-linguistic dimensions of borrowing require further investigation at the intersection of linguistics and other social sciences further demonstrates the relevance of the issue.

In Uzbek linguistics, it is widely acknowledged that a considerable proportion of contemporary borrowings enter the language through digital media. During the period of independence, the expansion of international relations and the rapid development of digital communication have significantly intensified borrowing processes in Uzbek. Whereas Russian previously played a predominant intermediary role in the borrowing of units originating from European languages, direct borrowing from English has become increasingly prominent in the present period. As President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev noted, “At present, science and technology are developing rapidly throughout the world, while our country’s international cooperation is steadily expanding. As a result, many new concepts, words and expressions are entering our everyday life from other languages.”[35] This process is not confined to the lexical level; it is also manifested in the increasing use in Uzbek discourse of certain grammatical elements and structural patterns characteristic of foreign languages. Therefore, determining the

[35] Mirziyoyev Sh.M. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutq. – Toshkent, 2019-yil 21-oktyabr. – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.

linguistic nature and structural properties of grammatical borrowings, their integration into the grammatical system of Uzbek, and the extent of their normalization is of considerable theoretical and scholarly significance.

The present dissertation contributes, to a certain extent, to the implementation of the objectives set forth in the Law of the Republic of Uzbekistan "On the State Language"; Presidential Decree No. PF-5850 of October 21, 2019, "On Measures to Fundamentally Enhance the Prestige and Status of the Uzbek Language as the State Language"[36] Presidential Decree No. PF-6084 of October 20, 2020, "On Measures for the Further Development of the Uzbek Language and Improvement of Language Policy in the Country";[37] Presidential Resolution No. PQ-308 of October 20, 2025, "On Additional Measures for the Further Development of the State Language";[38] Resolution No. 589 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated September 18, 2024, "On Measures to Further Improve the Activities of the Terminology Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan";[39] and Resolution No. 437 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated August 7, 2026, "On Additional Measures for the Effective Organization of Official Documentation in the State Language in the Republic."[40] These legislative and regulatory acts provide for strengthening the prestige and status of the state language, improving the scholarly foundations, rules, and norms of the Uzbek literary language, conducting systematic research into contemporary processes in language development, evaluating linguistic phenomena arising under the influence of other languages from the perspective of linguistic norms, and advancing scholarly research on the Uzbek language.

Relevance of the research to the priority directions of the development of science and technology in the republic. The research was conducted in accordance with Priority Area I of the development of science, technology, and innovation in the Republic: "Developing a System of Innovative Ideas and Mechanisms for Their Implementation in the Social, Legal, Economic, Cultural, Spiritual, and Educational Development of an Information Society and a Democratic State."

Degree of study of the problem. Linguistic borrowing, which emerges as a natural consequence of language contact, has been investigated in international linguistics from various theoretical perspectives, leading to the development of a substantial body of scholarly knowledge concerning its linguistic nature,

[36] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni // www.lex.uz

[37] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni // www.lex.uz

[38] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi PQ-308-son "Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi qarori // www.lex.uz

[39] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-sentabrdagi 589-son "O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori // www.lex.uz

[40] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 7-avgustdagi 437-son "Respublikada davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori // www.lex.uz

underlying mechanisms, and manifestations within the structural system of the recipient language. In particular, issues relating to language contact, linguistic borrowing, interference, and the interaction between linguistic systems have been examined in the works of U. Weinreich, E. Haugen, A. Patrizia, and R. Phillipson[41]. In Russian linguistics, I. A. Baudouin de Courtenay, L. P. Efremov, L. V. Shcherba, L. P. Krysin, V. M. Aristova, A. K. Kazkenova, S. I. Alatortseva, and M. V. Tarasova[42] have addressed various aspects of linguistic borrowing, including the nature of borrowed linguistic units, their adaptation to the recipient language, and the processes of lexical and semantic change. Within the field of Turkic linguistics, V. A. Sycheva, S. S. Kenesbayeva, A. Ovezov, and G. Mirzoyeva[43] have investigated the phonetic, lexical, and semantic characteristics of borrowings from Arabic, Persian, and English in individual Turkic languages. The theoretical and typological dimensions of grammatical borrowing, in particular, have been systematically examined within contemporary contact linguistics by Y. Matras, J. Sakel[44], and F. Gardani[45], whose studies have contributed to the understanding of the mechanisms underlying the borrowing of grammatical material and structural patterns.

In Uzbek linguistics, the problems associated with lexical borrowing, the historical development of borrowed units, and their adaptation to the linguistic system of Uzbek have received considerable scholarly attention. Particularly noteworthy are the studies conducted by F. Abdullayev, J. Hamdamov, R. Daniyarov, E. Begmatov, A. Hojiyev, A. Nishonov, and O. Jumaniyozov[46], as well

[41] Weinreich U. Languages in contact: Findings and problems. – New York, 1953. – 149 p.; Haugen E. The analysis of linguistic borrowing // Language. – New York: 1950. Volume, 26. № 2, 1950. – P. 210-231.; Patrizia A. Lexical Innovation in World Englishes: Cross-fertilization and Evolving Paradigms. – London: Routledge, 2018. – 174 p.; Phillipson R. Linguistic imperialism. – Oxford: Oxford University Press, 1992. – P. 365.

[42] Бодуэн де Куртене И.А. Избранные труды по общему языкознанию. В 2 томах. Том II. – М.: АН, 1963. – С. 365.; Ефремов Л.П. Сущность лексического заимствования и основные признаки освоения заимствованных слов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1959. – 22 с.; Щерба Л.В. О понятии смешения языков // Избранные работы по языкознанию и фонетике. –Т. 1. – Л., 1958. – С. 40-53; Крысин Л.П. Иноязычные слова в современном русском языке. – М.: Наука, 1968. – 208 с.; Аристова В.М. О лексических заимствованиях из английского языка в русский язык в XVII-XVIII вв. – М.: Высшая школа. – 1978. – 113 с.; Казкенова А.К. Онтология заимствованного слова. – М.: Флинта, 2013. – 248 с.; Алаторцева С.И. Проблемы неологии и русская неография: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – СПб., 1999. – 40 с.; Тарасова М.В. Семантические изменения английских заимствований в русском и немецком языках в условия глобализации: Автореф. дисс. …канд. филол. наук. – Белгород, 2009. – С. 19.

[43] Сычева В.А. Арабские и персидские лексические заимствования в гагаузском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М.: 1974. – 26 с.; Кенесбаева С.С. Фонотактические модели арабизмов в казахском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1987. – 28 с.; Овезов А. Персидские и арабские заимствования в современной туркменской поэзии: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1974. – 28 с.; Мирзоева Г. Английские заимствования в тюркских языках // Молодий вчений. Херсон. №12 (88) 2020. – С. 69-72.

[44] Sakel J. Types of loan: Matter and pattern // Grammatical Borrowing in Cross-Linguistic Perspective. – Berlin; New York: Mouton de Gruyter, 2007. – P. 15–30.

[44] Gardani F. Borrowing matter and pattern in morphology: An overview // Morphology. – 2020. – Vol. 30, № 4. – P. 263–282

[45] Gardani, F. Borrowing Matter and Pattern in Morphology: An Overview. Morphology, 2020, Vol. 30, No. 4, pp. 263–282.

[46] Абдуллаев Ф.А. Арабизмы в узбекском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент: 1946. – 143 с.; Хамдамов Ж. Из истории русского языка в обогащение лексики узбекского языке (вторая половина XIX века): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент: 1963. – 24 с.; Данияров Р.И. Заимствование русско-интернациональных личных имен узбекским языком: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1967. – 21 с.; Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 200 б.;

